


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TEMIR YO‘L MUHANDISLARI INSTITUTI**

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası



Himoya qilishga ruxsat berilsin
«Buxgalteriya hisobi va audit»
kafedrası mudiri
i.f.n., dots. S.M. Sultanova

«__» _____ 2016 y.

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**Mavzu: “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlari
tarkibi, ularning hisobi va tahlili**

Ta‘lim yo‘nalishi: 5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit”
(temir yo‘l transporti)

Bitiruvchi: Serjanova.U.T.

Ilmiy rahbar: Mirbabayeva.D.M.

Taqrizchi: Kovaleva O.V.

Toshkent – 2016 y.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TEMIR YO‘L MUHANDISLARI INSTITUTI**

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası



Himoya qilishga ruxsat berilsin
«Buxgalteriya hisobi va audit»
kafedrası mudiri
i.f.n., dots. S.M. Sultanova

«__» _____ 2016 y.

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**Mavzu: “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlari
tarkibi, ularning hisobi va tahlili**

Ta‘lim yo‘nalishi: 5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit”
(temir yo‘l transporti)

Bitiruvchi: Serjanova.U.T.

Ilmiy rahbar: Mirbabayeva.D.M.

Taqrizchi: Kovaleva O.V.

Toshkent – 2016 y.

hisobi		
III. Bob. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarini kamaytirish yo’llari	35	aprel
3.1. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlariga ta’sir etuvchi omillar	20	
3.2. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari	15	
Xulosa va takliflar.	5	may
Foydalanilgan adabiyotlar.		
Bitiruv malakaviy ishi himoyasi.		iyun

4. Tavsiya qilingan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. «O’zbekiston Respublikasining 2015 yilgi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish natijalari va 2016 yilgi vazifalar to’g’risida» -Toshkent.
2. “O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi”. Qabulqilingan sana 25.12.2007, kuchga kirish sanasi 01.01.2008y. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2015 y., 33-son. (o’zgartirish va qo’shimchalar bilan).
3. O’zbekiston Respublikasi “Temir yo’l transporti to’g’risida”gi Qonuni- 1999 yil.
4. O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonuni- 1996 yil.
5. O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo’mitasi –Toshkent. 2014 yil.
6. “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risida” 54- sonli Nizom, 1999 yil, 5 fevral
7. “Buxgalteriya hisobiga doir nizomlar”-Toshkent.2014y.
8. Красов А.П. «Бухгалтерский учет основной деятельности железных дорог»- М.Транспорт, 2008й.
9. Фуломова Ф.Х, “Бухгалтерия хисобини мустаил ўрганиш учун қўлланма”-Тошкент. Норма. 2012 й.
10. Н.И. Силаев, Ф.К.Абдуллаева “Анализ хозяйственной деятельности предприятий железнодорожного транспорта” –Ташкент, темир йулчи. 2010 й.
11. М. Тўлахўжаева “Аудит” 1, 2 том. –Тошкент. Иктисод- Молия. 2008 й
12. Жўраев Н., Бобожонов О., Абдувахидов Ф., Сотволдиева Д. Молиявий ва Бошқарув хисоби. Дарслик. -Тошкент. 2007 й .
13. Жўраев Н., Холбеков Р., Абдувахидов Ф., Илхомов И. Бухгалтерия хисоби, иктисодий тахлил ва аудит. Дарслик. -Тошкент.2007 й
14. Jo’rayevM.J., AbduvohidovF.T., SotiboldiyevaD.A. Moliyaviyvboshqaruvhisob -T. Iqtisod-moliya darslik. 2010yil.
15. Э.Ф. Гадоев, И.Х. Голишева, Ш.У. Щайдаров “Фойда солиги” –Тошкент.Норма. 2011й.
16. Сборник отдельных МСФО, выпущенных на 1 января 2015 года (Официальный перевод на русский язык Фонда МСФО) Часть 1. Ташкент-2015
17. Сборник отдельных МСФО, выпущенных на 1 января 2015 года (Официальный перевод на русский язык Фонда МСФО) Часть 2. Ташкент-2015
18. S.M. Sultanova, D.M. Mirbabayeva, A.B. Djumanova, N.U. Babaxanova “Temir yo’l transportining iqtisodiy va moliyaviy faoliyati tahlili”-Toshkent. ToshTYMI 2015y.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti

«Buxgalteriya hisobi va audit»
kafedrasining majlisida
TASDIQLANGAN
 **kafedra mudiri, i.f.n**
dots.Sultanova S.M.,
«15» 12 2015 y.

«BAKALAVR» kvalifikatsiyasi darajasini berish uchun tayyorlanadigan bitiruv ishiga

TOPSHIRIQ

Talaba: BHA- 29 Serjanova Uldaulet Torebay qizi.

Mavzu: “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlari tarkibi, ularning xisobi va tahlili.

1. Qo‘yilgan maqsadi:

- 1.1. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va tahlili bo‘yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.
- 1.2. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlari hisobini yuritishni o‘rganish.
- 1.3. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlarini kamaytirishga oid takliflar ishlab chiqish.

2. Dastlabki ma‘lumotlar:

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan ishlab chiqilgan va Prezident tomonidan tasdiqlangan me‘yoriy hujjatlar.
- 2.2. O‘zbekiston Respublikasi va temir yo‘l boshqarmasi tomonidan korxona faoliyatiga oid qarorlar.
- 2.3. Korxona faoliyati to‘g‘risidagi nizom.
- 2.4. Korxona faoliyatiga oid yillik hisobotlar (2013-2015)
- 2.5. Korxona hisob siyosati.
- 2.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati va boshqalar.

3. Ishning mazmuni:

Bo‘limlar nomi	Umumiy hajmdan % hisobi	Bajarish muddati
Kirish	5	yanvar
I Bob. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning moliyaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlari va ularning tahlili	20	fevral
1.1. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning moliyaviy iqtisodiy faolyatining tasnifi 2.	10	
1.2. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJning davr xarajatlari tahlili 4-5	10	
II Bob. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJning davr xarajatlarning buxgalteriya hisobi	35	mart
2.1. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJning davr xarajatlarini hisobga olishning birlamchi hujatlari	15	
2.2. “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ xarajatlarning sintetik va analitik	20	

Internet saytlar.

1. www.lex.uz
2. www.norma.uz
3. www.ziynet.uz
4. www.tfi.uz
5. www.stat.uz
6. www.uzreal.uz
7. www.gov.uz
8. www.soliq.uz
9. www.tashiit.uz

Bitiruv malakaviy ish rahbari

Bitiruvchi

Vazifaning berilgan vaqti

Ishning oxiri

Taqriz beriladigan sana

Katta o'qituvchi

Mirbabayeva D.M.

Serjanova U.T.

«15» 12 2015y.

«25» 05 2016y.

«1» 06 2016y.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotida temir yo'l transporti prezidentimiz aytganlaridek, mamlakatimizning qon tomiri hisoblanib, yuk va yo'lovchilar aylanmasini oshirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga katta hissa qo'shmoqda.

2015 yilda Investitsiya dasturiga kiritilgan 17 loyiha bo'yicha jami 755,16 mln. dollar miqdorida yoki prognozga nisbatan 102,8 foiz kapital mablag'lar o'zlashtirilishtirildi.

2015 yil yakuni bo'yicha 347,7 mln. dollari miqdorida eksport xizmatlari ko'rsatildi va bu prognozga nisbatan 100,2 foizni tashkil etdi.¹

Temir yo'l transporti sohasida temir yo'l tarmog'ini yanada rivojlantirish, Samarqand – Buxoro temir yo'l uchastkasining elektrlashtirilishini ta'minlash, Qarshi – Termiz uchastkasini elektrlashtirish ishlarini davom ettirish hal qiluvchi yo'nalishga aylanadi. Qamchiq dovoni orqali o'tadigan 19 kilometrlik tunnel qurilishini yakuniga yetkazish va Angren – Pop yo'nalishi bo'yicha temir yo'l qatnovini yo'lga qo'yish, hech shubhasiz, joriy yilning muhim voqeasi bo'ldi. Bu yo'lning ishga tushirilishi Farg'ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o'rtasida temir yo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish imkonini yaratdi. Zamonaviy aloqa va signallashtirish qurilmalari bilan taminlash maqsadida bu hududda optik tolali, kam xarajatli va ishonchli xizmat ko'rsatadigan aloqa simlari o'rnatilmoqda.

“O'zbekiston temir yo'llari”AJning tashish xizmatlarini ko'rsatishida “O'ztemiryo'lkonteyner” AJning xissasi kattadir. U O'zbekiston Respublikasi, MDH, Yevropa va Osiyo davlatlari hududida eksport, import, tranzit hamda davlat ichidagi yuklarni konteynerlarda tashishda transport ekspeditorlik xizmatlarini ko'rsatadi.

Shu o'rinda mamlakatimizning yil yakunlarini sarhisob qilsak, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq

¹ «O'zbekiston temir yo'llar» aktsiyadorlik jamiyati boshqaruvi 2015 yil yakunlariga bag'ishlangan majlisidagi AJ boshqaruvi raisi A.J. Ramatov ma'ruzasi.

xo‘jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

O‘zimizning resurs va imkoniyatlarimizni real baholagan holda, biz oldimizga aniq maqsadni – ya’ni, 2030-yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifasini qo‘yishimiz uchun bugun, hech shubhasiz, barcha asoslarimiz bor.

Endilikda 2016-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sinh sur‘atlari 7,8 foizdan iborat bo‘lishini ta‘minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 8,2 foiz, qishloq xo‘jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko‘rsatish hajmini 17,4 foizga ko‘paytirish vazifasi qo‘yilmoqda. Inflatsiya darajasini 5,5-6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o‘rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko‘zda tutilmoqda.²

Bitiruv malakaviy ishining obyekti “O‘ztemiryo‘lkonteyner” Aksidorlik jamiyati hisoblanadi. Bitiruv ishining predmeti “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va tahlilidir.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJning davr xarajatlari tarkibini o‘rgangan holda, ularni qisqartirish imkoniyatlarini izlab topish, davr xarajatlarini hisobga olishda va tahlil qilishda zamonaviy hujjatlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishdir. Bitiruv malakaviy ishida jami xarajatlar tarkibida davr xarajatlarining ulushini, tuzulmasini va dinamikasini o‘rganib, uni o‘zgarish sabablari, davr xarajatlarini hisobga olish va kamaytirish, tahlil qilish orqali muammoni yechish masalalari o‘rganildi.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad quyidagilardan iborat:

- “O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ ning davr xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va tahlili bo'yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.

² O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016- yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari haqidagi ma‘ruzasidan.

- “O’ztemiryo’lkonteyner” AJ da davr xarajatlari hisobini yuritilishini o’rganish.

- “O’ztemiryo’lkonteyner” AJ ning davr xarajatlarini kamaytirishga oid takliflar ishlab chiqish.

Maqsaddan kelib chiqqan holda mavzuni yoritishda quyidagi vazifalar yechiladi:

- Davr xarajatlari bo’yicha umumiy nazariy bilimlarni oshirish.

-Temir yo’lda tranzit tashuvlarni ko’paytirish va hujjatlashtirishni yanada soddalashtirish.

- Korxonada davr xarajatlarini kengroq yoritib, ularni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilab, tegishli takliflarni kiritishdan iborat.

Mavzuni yoritishda quyidagi qonuniy va me’yoriy hujjatlar va boshqa axborot manbalaridan foydalaniladi:

- O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ishlab chiqilgan va Prezident tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar.

-O’zbekiston Respublikasi va temir yo’l boshqarmasi tomonidan korxona faoliyatiga oid qarorlar.

- “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonun.

-“Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risida” Nizom

- Buxgalteriya hisobining milliy andozalari.

- Temir yo’l transporti faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlar.

- Korxona faoliyati to’g’risidagi nizom.

-Korxona faoliyatiga oid yillik hisobotlar (2013-2015)

- Korxonaning hisob siyosati.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Kirish qismida tanlangan mavzuning nomi, uning dolzarbligi, yakuniy bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari aks ettirilgan.

Yakuniy bitiruv malakaviy ishining so'ngida mavzu yuzasidan asosiy xulosa va takliflar berilgan.

I Bob. “O'ztemiryo'lkonteyner” AJ ning moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlari va ularning tahlili

1.1. “O'ztemiryo'lkonteyner” AJ ning moliyaviy iqtisodiy faolyatining tasnifi

“O'ztemiryo'lkonteyner” aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 19-noyabrdagi «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 3 martdagi 108 - sonli va 9 martdagi 119 -sonli qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi 2002-yil 28-iyundagi 186-sonli buyrug'iga asosan «O'ztemiryo'lkonteyner» sho'ba temir yo'l konteynerlarni tashish korxonasi asosida qayta tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda “O'ztemiryo'lkonteyner” AJ ning quyidagi filliallari o'z faoliyatni ko'rsatmoqta: Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qarshi, Urganch, Termiz, Nukus. Korxona mustaqil balansga ega bo'lib O'zbekiston Respublikasi hududidagi banklarda o'rnatilgan tartibda hisob raqamlari va boshqa hisob kitoblarda amalga oshiriladi. Korxonaning asosiy faoliyat turlari³:

- ✓ konteyner yuk tashish ishlarini amalga oshirish;
- ✓ yuklarni yuklash - tushirish ishlarini tashkil qilish va yuklarni junatuvchilarga tijorat operatsiyalarini rasmiylashtirish;
- ✓ transport xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;
- ✓ yuk tashish ishlari texnologiyasida boshqaruv tizimini avtomatlashtirilishini tadbiq etish;
- ✓ transport — ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish;
- ✓ bojxona yuklarini tashuvchi sifatida yuklarni bir joydan boshqa joyga kuchirilishiga doir xizmatlar ko'rsatish;

³ “O'ztemiryo'lkonteyner”AJ ustavi

- ✓ bojxona nazorati ostida bir joydan boshqa joyga ko'chiriladigan tovarlar va transportdagi yuklarni saqdash xamda brokerlik operatsiyalarini amalga oshirish;
- ✓ yuklarni deklaratsiyadan o'tkazish;
- ✓ MDX va Boltiqbo'yi davlatlari hududlari doirasida konteynerlar parking rejali asosdagi xisobini va ularni o'z vaqtida qaytarilishi nazorat qilinishini amalga oshiradigan tizimini joriy qilishni tashkil etish;
- ✓ boshqa davlatlarga tegishli bo'lgan konteynerlar parkidan foydalanish ustidan nazorat yuritish va ularni yuk egasi bo'lgan mamlakatlarga o'z vaqtida qaytarilishini tashkil qilish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida va boshqa davlatlarda tarozi egalarining og'irlik o'lchovchi asboblari tizimi ustidan idoraviy texnika nazorati yuritilishini amalga oshirish, ularni montaj qilish, ta'mirlash va texnik xizmatlar ko'rsatish;
- ✓ multimodal tashishlarni tashkil kilish;
- ✓ avtotransportlarni joyiga quyish, ta'mirlash va texnik xizmatlar kursatish;
- ✓ atrof-muhitni muxofaza qilish va ekologik toza texnologiyalarni tadbqiq etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- ✓ ta'mirlash-ishlab chiqarishga joriy qilish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan butlovchi asbob-uskunalar, detallar, ehtiyot qismlarni chet eldan keltirilishi va mahalliy ishlab chiqarilishini rivojlantirib borish;
- ✓ xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish;
- ✓ qurilish materiallarini ishlab chiqarish va sotish;
- ✓ transport vositalarining barcha turlari uchun nostandart uskunalarni tayyorlash;
- ✓ qurilish-montaj, qurilish - ta'mirlash, uskunalar bilan qayta jihozlash va boshqa pudrat ishlarini amalga oshirish;
- ✓ loyixa-smeta hujjatlarini tayyorlash va ishlab -chiqarish;
- ✓ ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- ✓ montaj qilish va ishga tushirish — sozlash ishlari;

- ✓ kommunikatsion va kompyuter tizimlarini joylashtirish, sozlash, hamda servis xizmati ko'rsatish;
- ✓ tijorat va savdo faoliyati;
- ✓ turli xil ishlab chiqarish chiqindilari, ikkilamchi xom-ashyo va maishiy chiqindilarni yarim tayyor maxsulot hamda tayyor maxsulot sifatida yig'ish, sotib olish, qayta ishlash va sotuvga chiqarish;
- ✓ marketing, agentlik va boshqa xizmatlari ko'rsatish;
- ✓ pullik o'qitish kurslarini tashkil qilish;
- ✓ tovar material boyliklarni yarmarkalar, kim oshdi savdosi orqali bozor tovar aylanmasiga jalb qilish;
- ✓ tijorat do'konlarini tashkil qilish va ishlatish;
- ✓ ko'rgazmalar, kim oshdi savdolari va taqdimot marosimlari, tijorat kompaniyalarini tashkil qilish hamda o'tkazish;
- ✓ kishloq xo'jaligi, chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini saqlash, jo'natish va sotuvga chiqarish;
- ✓ umumiy ovqatlanishni tashkil qilish;
- ✓ tashqi iqtisodiy faoliyat;

Korxona o'zining rivojlanish yo'nalishlarini mustaqil belgilash va amalga oshirish, ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha huquq va imkoniyatlarga ega. «O'TY» AJga boshqa idoralar, tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini belgilash, konteyner tashishlarni, yuklarni qayta ishlashni va boshqa xizmatlarni qisqa va uzoq muddatli prognozlarini hamda ijtimoiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish huquqi berilgan. Konteyner tashishlarning va boshqa barcha xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini va rentabelligini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni mustaqil ravishda ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Korxonaning ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyati bo'yicha biznes rejani tuzilishini va nazoratini iqtisod bo'imi amalga oshiradi. Ishlab chiqarish xo'jalik

faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni hujjatlashtirish va hisobga olish ishlarini buxgalteriya hisobi bo'limi olib boradi. «O'ztemiryo'lkonteyner» tarkibiga kiruvchi bo'linmalarning (filiallarining) ishlab-chiqarish texnologik jarayonlariga rioya qilinayotganligi, filiallarni uslubiy, me'yoriy-huquqiy ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi va ularga amal qilinishi boshqaruv xodimlari tomonidan nazorat qilib boriladi.

Korxonada buxgalteriya hisobi natura va pul ko'rinishida mulk, kapital, majburiyatlar va barcha xo'jalik operatsiyalarining uzluksiz, o'zaro bog'liq va hujjatli aks ettirish yo'li bilan yuritiladi.

“O'ztemiryo'lkonteyner” AJning hisob siyosatiga binoan buxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Buxgalteriya hisobini tashkillashtirish, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka asoslanganligi ustidan nazorat qilish bo'yicha javobgarlik “O'ztemiryo'lkonteyner” AJ rahbariga yuklatiladi;

2. “O'ztemiryo'lkonteyner” AJ rahbari hisob siyosatining hajmidan kelib chiqib:

a) buxgalteriya xizmatini bosh buxgalter boshchiligidagi tuzilmaviy bo'linma sifatida ta'sis etishi;

b) shartnomaviy asosda jalb etilgan buxgalterlar xizmatlaridan foydalanishi;

c) shartnomaviy shartlar asosida maxsus buxgalterlik firmasi yoki tarkibiga buxgalteriya hisobi subyekti kiruvchi xo'jalik birlashmalarining markazlashtirilgan buxgalteriya hisobini belgilash;

d) mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini yuritishi mumkin.

“O'ztemiryo'lkonteyner” AJning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobot quyidagi yo'nalishlarda tuziladi:

- Buxgalteriya hisoboti;
- Statistika hisoboti;
- Soliq hisoboti.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJni moliyalashtirish ichki o’zaro hisob-kitoblar bo’yicha qarzi bo’lmagan holda 2003-yilning 19-martida AJ raisi tomonidan tasdiqlangan “O’TY” AJning korxonalari va bo’linmalarining xo’jalik-moliyaviy faoliyati to’g’risida”gi Nizomiga ko’ra amalga oshiriladi.

Qarzdorlik bo’lgan taqdirda “O’ztemiryo’lkonteyner” AJ rahbariyati qarzdorlik sabablari ko’rsatilgan va ma’lum muddatga moliyaviy yordam ko’rsatilishi haqida iltimos qilingan hujjat (dokladnaya) taqdim etishlari shart.

Yordamchi-ko’makchi faoliyatdan olingan daromad va yuridik shaxs bo’lmagan bo’linma xarajatlari o’rtasidagi farq har oyda yuqori tashkilot balansiga o’tkaziladi. Buning natijasida dotatsiya ajratiladi yoki foydasi o’zlashtiriladi.

Ijtimoiy soha korxonalarini moliyalashtirish tasdiqlangan smeta bo’yicha markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJ soliqlarni mustaqil ravishda hisoblaydi hamda quyidagi soliq va majburiy to’lovlarni to’laydi:

- Yuridik shaxslarning foyda solig’i ;
- Jismoniy shaxslarning daromad solig’i;
- Shu jumladan shaxsiy jamg’arib boriladigan nafaqa fondi;
- Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i;
- Qo’shilgan qiymat solig’i;
- Suv resurslaridan foydalanganlik bo’yicha soliq;
- Yuridik shaxslarning mulk solig’i;
- Yuridik shaxslarning yer solig’i;
- Boshqa soliqlar;
- O’zbekiston respublikasi yo’l fondiga majburiy ajratma;
- Byudjetdan tashqari nafaqa fondiga;
- Yagona ijtimoiy to’lov;
- Amaldagi qonunchilik bo’yicha ishchilarning ish haqidan ularning roziligi bilan kasaba uyushmasiga ushlanmalar.

Ushbu soliqlar bo'yicha hisobot shakllari hisob siyosatiga binoan belgilangan muddatda mahalliy soliq inspeksiyasi va "O'TY" AJ "Moliya" boshqarmasiga topshiriladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyati yuritish uchun uning ixtiyorida mavjud bo'lgan moddiy, mehnat va pul resurslari yetarli bo'lishi zarur. Bunda ulardan foydalanish belgilangan me'yorlar asosida amalga oshirishi shart. «O'ztemiryo'lkonteyner» AJga quyidagidagilarni amalga oshirish huquqi berilgan:

- potensial hamkorlar bilan, jumladan chet el tashkilotlari, ularning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari bilan xizmat aloqalarini amalga oshirish;

- konteynerlarda yuk tashishni rivojlantirish uchun boshqa korxonalarning, tijorat va davlat banklarining, chet el investorlarining mablag'larini jalb etish;

- bitim, shartnoma, kontraktlarni tuzish;

- 10-01-son preyskurantda ko'zda tutilgan ishlar va xizmatlar uchun shartnomaviy narxlarni mustaqil o'rnatish.

Korxona ustavida korxonani moliyalashtirishning manbalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- «O'TY» AJning pul mablag'lari, moddiy va boshqa mablag'larlari;

- mahsulot, ishlar, xizmatlarni sotishdan va yordamchi-ko'makchi faoliyatdan olingan daromadlar;

- qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar;

- kapital qo'yilmalar, budjetdan qo'shimcha to'lovlar;

- beg'araz va hayriya badallari, boshqa manbalar.

Korxona faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi, «Temir yo'l transporti to'g'risida»gi Qonuniga, korxona ustaviga, «O'TY» AJning buyruqlariga, ko'rsatmalariga, farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga rioya qiladi.

Korxona mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarga ega, o'zini-o'zi qoplash va o'zini-o'zi moliyalashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi. Mustaqil buxgalteriya va statistika hisobotiga, muhriga va shtampiga, firma nomi va firma varaqasiga ega.

Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar tomonidan sotib olingan jamiyat aksiyalarining umumiy qiymatidan tashkil topadi. Jamiyatning ustav fondi miqdori 3 366 271,0 (uch milliard uch yuz oltmish olti million ikki yuz etmish bir ming) sumni tashkil qiladi. U har birining nominal qiymati 1 000 sum bo'lib 3 366 271 dona aksiya bo'lib, quyidagilarga taqsimlangan:

- «O'zbekiston temir yo'llari» AJning ulushi - 90 foiz, 3 029 643,0 ming sum, 3 029 643 dona;

- mehnat jamoasi va «O'zbekiston temir yo'llari» AJ xodimlari -10 foiz, 336 627,0 ming sum, 336 627 dona.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida hajm va sifat ko'rsatkichlarini o'ragnish hamda tahlil qilish muhim o'rin egallaydi. Chunki bu ko'rsatkichlarni o'rganish asosida korxona ishlab chiqarish boshqaruvini takomillashtirish, prognozlash, mehnat motivatsiyasini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot (ish, xizmatlar) realizatsiyasini oshirish mumkin. Korxona faoliyatining asosiy hajm va sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi.

- konteynerlarga yuklar ortish;

- yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmi;

- o'rtacha sutkada vagonlar tushirish;

- o'rtacha sutkada vagonlar yuklash.

“O'ztemiryo'lkonteyner” AJ mulki va mablag'lari manbalari tahlili

1.1-jadvalda jadvalida o'rganib chiqilgan.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJ mulki va mablag’lari manbalari
tahlili *

Ko’rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015- yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o’zgarishi	2015 yil 2014 yilga nisbatan o’zgarishi
				Mutloq (+/-)	Mutloq (+/-)
Uzoq muddatli aktivlar, ming so’m					
Joriy aktivlar, ming so’m					
Jami aktivlar, ming so’m					
O'z mablag'lari manbalari, ming so’m					
Joriy majburiyatlar, ming so’m					
Uzoq muddatli majburiyatlar, ming so’m					
Passiv jami, ming so’m					

* “O’ztemiryo’lkonteyner”AJ Buxgalteriya balansi (2013-2015-yillar)


1.1-jadval malumotlarini tahlil qiladigan bo’lsak, hisobot davrida “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning mulkini va mablag’larining manbalarini so’ngi uch yil davomida o’sishi kuzatildi. Jadval malumotlariga ko’ra, korxonaning uzoq muddatli aktivlari 2015- yilda 2013- yilga qaraganda 31482933 ming so’mga ortgan. Bunga asosiy sabab yangi asosiy vositalarning, texnika texnologiyalarning, konteynerlarning kirim qilinishi va uzoq muddatli investitsiyalarning jalb qilinganligini aytishimiz mumkin. 2015-yilda uzoq muddatli aktivlar jami aktivlarning 64%ini tashkil qilgan. Joriy aktivlar esa 36% ni tashkil etgan. Bunda joriy aktivlarning keskin kamayganligi kuzatiladi. Joriy aktivlarning kamayishiga tugalanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlarining qisqarishi sabab

bo'lgan. Shu bilan birga joriy majburiyatlarimizning o'zgarishi to'g'ri proporsional ravishda joriy aktivlarimizning kamayganligi kuzatiladi.

O'z mablag'larining manbalarini tuzilmasini tahlil qilish natijasida 2015-yilda ustav kapitali jami o'z mablag'larining 4 % ni tashkil etgan. O'z mablag'larining manbalari o'zgarishiga ustav kapitilining ta'siri bo'lmagan. Rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydaning oshishi sababli 2015- yilda 2013- yilga nisbatan 28640361 ming so'mga, 2014- yilga qaraganda esa 21514946 ming so'mga oshgan. 2015-yilda rezerv kapitali jami o'z mablag'larining 18%ini, taqsimlanmagan foyda esa 78%ni tashkil qilgan.

Joriy va uzoq muddatli majbutiyatlar o'z navbatida kamaygan. Majburiyatlarimizning kamayishi asosiy vositalarimizning ko'payishi "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning iqtisodiy holatining barqarorligidan darak beradi.

"O'ztemiryo'lkonteyner" AJning aktiv va passivlarining o'zgarishi dinamikasi 1.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning aktiv va passivlarining 2013-2015- yillar davomidagi o'zgarish dinamikasi (ming so'm)

1.2-jadvalda “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning ishlab chiqarish va iqtisodiy ko’rsatkichlarining uch yil davomidagi o’zgarishi berilgan.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning ishlab chiqarish va iqtisodiy
ko’rsatkichlarining tahlili *

Ko’rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o’zgarishi		2015 yil 2014 yilga nisbatan o’zgarishi	
				Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)	Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)
Konteynerlarga yuklar ortish,ming tonna							
Yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmi,ming tonna							
O’rtacha sutkada vagonlar tushirish,vagon							
O’rtacha sutkada vagonlar yuklash,vagon							

*manba: “O’ztemiryo’lkonteyner”AJ Moliyaviy-ishlab chiqarish faoliyati hisoboti (2013- 2015-yillar)

Yuqoridagi 1.2-jadvalda “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning ishlab chiqarish va iqtisodiy ko’rsatkichlarining tahlil qilish jarayonida xizmat ko’rsatish ko’rsatkichlarini o’sishi kuzatildi. Mazkur jadvalni o’rganib chiqish davomida konteynerlarga yuklar ortish 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 64,7 ming tonnaga ortgan yoki 15% oshgan. Buni 2014-yilga taqqoslaydigan bo’lsak 2015- yilda konteynerlarga yuklar ortish 59,6 ming tonnaga yoki 14%ga ko’paygan.


Yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmi 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 1585 ming tonnaga ortgan. Nisbiy miqdorda 72% ga ortgan. 2015- yilni 2014- yilga nisbatan yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmda o’sishga erishilgan. Bu ko’rsatkichni aniq raqamlarda ifodalaydigan bo’lsak, yuklarni ortish-

tushirish ishlarining umumiy hajmi o'tgan yilga nisbatan mutloq miqdorda 1274 ming tonnaga, nisbiy miqdorda esa 50%ga oshirishga erishildi . Demak, yuklarni ortish-tushirish hajmi yaxshi olib borilmoqda.

Jadval ma'lumotlaridagi navbatdagi ko'rsatkich bu sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, o'rtacha sutkada vagonlarni tushirish ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkich birligi vagonlar soni hisoblanib, 2015-yilda 2013-yilga nisbatan tushirish hajmi 26 ta vagonga ko'paygan. 2015-yilda konteynerlarda tashilgan yuklarning hajmining ortishi natijasida 2014-yilga nisbatan bir sutkada o'rtacha vagonlarni tushirish ko'rsatkichimiz 22 vagonga oshgan.

2015- yilda 2013 yilga nisbatan vagonlarni yuklash ko'rsatkichi esa 13 ta vagonga yuklangan bo'lsa, 2014- yilda 10 ta vagonga teng bo'lgan. Bu jarayon bevosita hajm ko'rsatkichi, yuklarni ortish-tushirish miqdori bilan bo'g'liq.

Bunga korxonaning konteynerli tashishlarni amalga oshirish bilan bog'liq tuzilgan shartnomalar sonining ortganligi, yuklarni ortish tushirish ishlarini avtomatlashtirilganligi asosiy sabab bo'lgan. Bundan tashqari, MDH davlatlari va Rossiya davlati bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi xalqaro miqyosda konteynerli tashishlarni o'sishiga olib kelgan. Yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmining o'zgarishi dinamikasi 1.2-rasmda ko'rsatilgan.



1.2-rasm Yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmining o'zgarishi

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJ faoliyatining mehnat ko’rsatkichlari dinamikasi o’zgarishi haqidagi ma’lumotlar 1.3-jadvalda keltirilgan.

1.3-jadval

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJ faoliyatining mehnat ko’rsatkichlari
dinamikasi tahlili*

Ko’rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015- yil 2013- yilga nisbatan o’zgarishi		2015- yil 2014- yilga nisbatan o’zgarishi	
				Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)	Mutloq (+/-)	Nisbiy (%)
Konteynerlarga yuklar ortish,ming tonna							
Yuklarni ortish-tushirish ishlarining umumiy hajmi,ming tonna							
Jami kontingent, kishi							
Shu jumladan yuklash-tushirish ishlari bo'yicha ishchilar, kishi							
Yuklash-tushirish ishlari bo'yicha mehnat unumdorligi, tonna/ kishi							
Konteynerlarga yuklar ortish bo'yicha mehnat unumdorligi, tonna/ kishi							
Ish haqi fondi, ming so'm							
O'rtacha oylik stavka, so'm							

*Manba: “O’ztemiryo’lkonteyner”AJ Moliyaviy-ishlab chiqarish hisoboti (2013-2015-yillar)

1.3- jadvalda korxona faoliyatining mehnat ko'rsatkichlari tahlil qilinib, korxonadagi jami kontingent dinamikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yillar davomida ishchilar sonining kamayishiga guvoh bo'lamiz. Jami kontingent 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 14 kishiga, 2014-yilda esa hisobot yiliga nisbatan 24 kishiga kamaygan.

Yuklash-tushirish ishlaridagi ishchilar soni 2015-yilda 2013- yilga nisbatan 4 kishiga ko'paygan. Bu ko'rsatkichni 2015-yilni 2014-yilga nisbatan o'zgarishiga to'xtalsak, yuklash-tushirish ishlaridagi ishchilar 2014-yilga nisbatan 4 kishiga kamayganligi ko'rindi.

Yuklash-tushirish ishlari bo'yicha mehnat unumdorligi vaqt birligida bajarilgan ish yoki bir ishchiga to'g'ri keluvchi tonnadagi yuk hajmini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichni yillar davomida doimiy ravishda o'sib borgan. 2015- yilda mehnat unumdorligi 2013- yilga nisbatan 8095 tonna/kishiga ko'paygan. Bu yerda ishchilar soni ortishi bilan birga mehnat unumdorligi ham ortib borgan. O'sish sur'ati 2014-yilda 2013-yilga nisbatan yuqori bo'lgan. Mehnat unumdorligini oshishiga asosiy sabab kam sonli ishchilar bilan ko'p ish bajarilganligidir. Bu esa tahlil etilayotgan korxona uchun ijobiy holat sanaladi. 2015- yilda 2014-yilga nisbatan 1 kishiga to'g'ri keluvchi yuklash-tushirish ishlarini 7215 tonnaga oshgan. Bu holat ijobiy hisoblanadi.

Endi korxonadagi ish haqi ko'rsatkichiga to'xtalamiz. Ish haqi fondi 2015-yili 2013- yilga nisbatan 3162201 ming so'mga oshgan. 2015- yili 2014- yilga nisbatan esa bu ko'rsatich 2549728 ming so'mga ko'paygan. Demak, ish haqi fondi yildan yilga ortib borgan. Bunga sabab, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar, xususan, aholi daromadlarini oshirish maqsadida minimal ish haqi darajalarining mutanosib ravishda oshirilib borilishi va bu jarayon korxonada ham izchil tadbiriq etilganligidir. O'rtacha oylik ish haqi stavkalarining o'zgarishiga nazar tashlasak, bu ko'rsatkich bevosita ish haqi fondiga mutanosib ravishda o'zgarib borganligini ko'ramiz. Hisobot yilida 2013-yilga nisbatan 386047 so'mga, 2014- yilga nisbatan

esa 298664 so'mga o'sganligini ko'ramiz. Ishilarning malakasini oshirilganligi ish haqi stavkalarining oshishiga sabab bo'lgan.

Korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlarining 2013-2015-yillardagi dinamikasini va tuzilmasini tahlili quyidagi 1.4-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqiladi.

1.4-jadval


“O'ztemiryo'lkonteyner”AJ moliyaviy faoliyati bilan bog'liq
ko'rsatkichlarining tahlili.*

Ko'rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015- yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o'zgarish	2015 yil 2014 yilga nisbatan o'zgarish
				Mutloq (+/-)	Mutloq (+/-)
Jami daromadlar, ming so'm					
Jami xarajatlar, ming so'm					
Jami foyda, ming so'm					
Sof foyda, ming so'm					

*Manba: “O'ztemiryo'lkonteyner”AJ buxgalteriya hisobi hisoboti ma'lumotlari

1.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2015-yilda korxonaning jami daromadlari 2013-yilga nisbatan 21758184 ming so'mga, 2015- yilda 2014-yilga nisbatan esa 17598825 ming so'mga ko'paygan. Korxonaning jami xarajatlari 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 14525008 ming so'mga oshgan. 2015- yildan 2014-yilga nisbatan jami xarajatlar 11811785 ming so'mga ko'paygan. Daromadlarning ko'payishi bilan xarajatlarning ham ko'yganligini binolarning kapital tamirlanganligi bilan izohlash mumkin. Lekin buni oxirgi ikki yil davomida o'zaro taqqoslasak 2014-yilda 2013-yilga qaraganda xarajatlarni biroz kamaytirishga erishilgan.

Quyidagi 1.3-rasmda “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning moliyaviy faoliyati bilan bog’liq ko’rsatkichlarining tahlili ko’rsatilgan.



1.3-rasm. Korxona moliyaviy holatini dinamikasi

Ushbu diagrammadan ko’rinib turibdiki, uchala ko’rsatkich ham yillar davomida o’sib brogan. Jami foyda 2015-yilda 2013-yilga nisbatan deyarli 97%ga oshgan.

1.2. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlari tahlili

Korxonada davr xarajatlari Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risidagi” nizomga muvofiq hisobga olinadi va bu xarajatlar yuqoridagi nizomga muvofiq buxgalteriyada hisobga olinadi.

Davr xarajatlari – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog’liq bo’lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi, ya’ni boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo’jalik ahamiyatiga ega bo’lgan boshqa xarajatlar.

"Davr xarajatlari" quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- ✓ mahsulotni sotish xarajatlari;
- ✓ boshqaruv xarajatlari;
- ✓ boshqa operatsion xarajatlari,
- ✓ Kelgusida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari.

Sotish xarajatlariga quyidagi xarajatlari kiradi;

— tovarlarni temir yo'l orqali tashish xarajatlari. Ushbu xarajatlarga tashish xarajatlari, shuningdek transport vositalarining to'xtab qolishi uchun to'langan jarimalar kiradi;

-korxonaning sotish bo'yicha xarajatlari, shu jumladan:

-mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari, bunga ma'muriy-boshqaruv apparati xodimlariga haq to'lash kirmaydi;

-ish haqiga taalluqli ijtimoiy sug'urta xarajatlari;

-savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga berish, saqlash va ta'mirlash xarajatlari;

-asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

-sanitariya kiyimlari, sochiq va dasturxonalar, arzon inventar va xo'jalik ashyolari, oshxona anjomlari va idishtovoqlarning eskirishi;

-gaz, yoqilg'i, elektr quvvati xarajatlari;

-tovarlarni saqlash, ishlov berish va navlarga ajratish xarajatlari;

-savdo reklamasi xarajatlari;

-tashish, saqlash va sotishda me'yorlar doirasida va ulardan ortiqcha tovarlar talafotlari;

-molmulkni majburiy va ixtayoriy sug'urtalash xarajatlari;

-mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi xarajatlari;

-havo haydagichlarni o'rnatish va saqlash, mashinalar va ularning harakatlanadigan qismlari, tuynuklar, teshiklar va hokazolarni hov bilan o'rab qo'yishning joriy (nokapital tushadigan) xarajatlari;

- maxsus kiyim va maxsus poyabzalning eskirishi;
- maxsus kiyim va poyabzalni tozalash va tuzatish uchun sarflangan materiallar qiymati;
- umumiy ovqatlanish va savdo xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga to'lanadigan haq;
- kassa xo'jaligini yuritish va tushumni inkassatsiyalash chiqimlari;
- sotish bozorlarini o'rganish xarajatlari (marketing, reklama xarajatlari);
- yuqorida qayd etilmagan sotishga doir boshqa xarajatlar.

“O'ztemiryo'lkonteyner”AJda davr xarajatlarining faqatgina ma'muriy xarajatlar (9420) va boshqa operatsion xarajatlar (9430) hisobvaraqlari belgilangan tartibda qonun qoidalariga bo'ysingan holda yuritiladi.

Mamuriy xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- boshqaruv apparati xodimlariga taaluqli mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- boshqaruv apparati xodimlariga taalluqli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- yengil xizmat avtotransporti va boshqa transport vositalarini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;
- xo'jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va boshqarish xarajatlari;
- boshqaruvning texnik vositalari, aloqa tarmoqlari, ogohlantarish vositalari, hisoblash markazlari va ishlabchiqarishga taalluqli bo'lmagan boshqa texnik boshqaruv vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;
- ijara, xizmatlar ko'rsatgani uchun aloqa tarmoklariga haq (ATS, mobil, yo'ldosh va Internet);
- xalqaro va shaharlararo telefon so'zlashuvlariga haq to'lash;
- ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun bino va xonalar ijarasiga haq to'lash;
- ma'muriy maqsaddagi asosiy vositalarni saqlash va ta'mirlash xarajatlari, shuningdek ularning eskirishi (amortizatsiyasi);

— yuqori tashkilotlar va yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlr va hokazolarni saqlashga ajratmalar;

— ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lanmagan xodimlar va molmulkning majburiy va ixtiyoriy sug'urtasi bilan bog'liq;

— boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari xarajatlari;

— vakillik xarajatlari;

— xonalarni bepul berish xarajatlari, umumiy ovqatlanish korxonalariga kommunal xizmatlar qiymatini to'lashva hokazo;

Quyidagi 1.5-jadvalda 9420 «Ma'muriy xarajatlar» hisobvarag'ini bir necha qismlarga bo'lgan holda o'rganib chiqamiz.

1.5-jadval

“O'ztemiryo'lkonteyner”AJning mehnatga haq to'lash fondi
ko'rsatkichlari tahlili *(9420)

Ko'rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015- yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o'zgarish	2015 yil 2014 yilga nisbatan o'zgarish
				Mutloq (+/-)	Mutloq (+/-)
Ma'muriy boshqaruv xodimi ish haqi, ming so'm					
Ma'muriy boshqaruv ishchi haydovchilari ish haqi, ming so'm					
Boshqaruv xodimlari xarajatlari, ming so'm					
Boshqaruv xo'jalik subyektlari xarajatlari, ming so'm					
Xizmat safari, ming so'm					
Xizmat safari valyutada, ming so'm					

*Manba “O'ztemiryo'lkonteyner”AJning buxgalteriya hisobi hisobotlari (2013-2015-yillar)

1.5-jadvalda, “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning mehnatga haq to’lash fondi ko’rsatkichlari ma’muriy xarajatlarining oxirgi uch yil davomidagi o’zgarishlari dinamikasi keltirilgan. Bunga ko’ra, hisobot davrida Ma’muriy boshqaruv xodimi ish haqi 2013-yilga qaraganda 45674507,62 ming so’mga, 2014-yilga nisbatan esa 26362094,51 ming so’mga oshgan. Ma’muriy boshqaruv ishchi haydovchilarining ish haqi 2015- yilda 2014-yilga qaraganda biroz kamaygan. Bunga sabab, Ma’muriy boshqaruv ishchi haydovchilari sonining qisqarishidir. Bu o’z navbatida korxonamizning mehnatga haq to’lash fondining iqtisod qilinishiga olib kelgan. Boshqaruv xarajatlari hisobot yilida 2014-yilga qaraganda 54930381,38 ming so’mga oshgan, 2013- yilga nisbatan 9756587,84 ming so’mga tejashga erishilgan. Bu esa korxonamizning xarajatlarning qisqarishiga yordam berdan. Lekin shunga qaramastan boshqaruv xarajatlari oshib borgan. 2015-yilda 2013-yildaga nisbatan 2257400 ming so’mga ko’p bo’lgan. Hisobot davrida 2014-yilga qaraganda 1363400 ming so’mga oshgan. O’z navbatida xizmat safarlari xarajatlari ham ish haqiga to’g’ri proporsional tarzda oshib borganligi ko’rinadi. Jumladan 2015-yilda xizmat safarlari xarajatlari 2013- yilga nisbatan 1476986 ming so’mni tashkil qilgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 2014-yilga nisbatan 684736 ming so’mga teng bo’lgan. Xizmat safari xarajatlarining oshishiga asosiy sabab, xodimlar malakasini oshirish bilan bo’g’liq xarajatlarning ko’payganligidir.

Quyidagi 1.6-jadvalda “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning ijtimoiy xarajatlari ko’rsatkichlarini o’zgarishi ko’rib chiqiladi.

“O’ztemiryo’lkonteyner”AJning ijtimoiy xarajatlari
ko’rsatkichlari tahlili *(9420)

Ko’rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015- yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o’zgarish	2015 yil 2014 yilga nisbatan o’zgarish
				Mutloq (+/-)	Mutloq (+/-)
Xodimlar va mol- mulkning majburiy hamda ixtiyoriy sug’urtasi, ming so’m					
Xo’jalik subyektlarini tashkil qilish va boshqarish xarajatlari, ming so’m					
Ijtimoiy sug’urtaga ajratma(7,5%), ming so’m					
Tashish uchun to’lovlardan 0,15% ajratma, ming so’m					
Ijtimoiy sug’urtaga ajratma(25%), ming so’m					

* Manba: “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning buxgalteriya hisobi hisobotlari (2013-2015-yillar)

“O’ztemiryo’lkonteyner”AJning ijtimoiy xarajatlari ko’rsatkichlari haqidagi jadvalni tahlil qilsak, bunda xodimlar va mol-mulkning majburiy va ixtiyoriy sug’urtasi ko’rsatkichining bir o’sib bir kamayish dinamikasi ko’rinadi. Hisobot yilida bu ko’rsatkich 2013-yilga qaraganda 29370500,8 ming so’mga kamaygan bo’lsa, 2014- yilga nisbatan esa 24624159,52 ming so’mga o’sgan. Buni korxonada mulkning miqdori ko’payishi bilan izohlashimiz mumkin. Xo’lalik subyektlarini tashkil qilish va boshqarish xarajatlari, oxirgi uch yil davomida keskin kamaygan,

ya'ni 2015-yilda 2013- yilga qaraganda 24362089,53 ming so'mga, 2015-yilni 2014-yilga taqqoslasak bu ko'rsatkich 35488224,9 ming so'mga kamaygan. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmasi(25%) ko'rsatkichi 2015-yilda 2013-yilga qaraganda 13221233,76 ming so'mga ko'paygan. Ko'payish sababini minimal ish haqining qiymati oshishi bilan izohlanadi. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma(7,5%) 2015-yilda 2014-yilda nisbatan 1359117,07 ming so'mga kamaygan bunga sabab korxonada ishchilar soning qisqarishidir. Albatta bu xarajat ko'rsatkichlarimizning kamayishi korxona iqtisodining rivojlanishiga, pul mablag'larining tejalishiga o'z hissasini qo'shgan. "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning ijtimoiy xarajatlari ko'rsatkichlarini kamayganligi ijobiy holat bo'lib, bunga to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish yordamida erishilgan.

Quyidagi "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning materiallar xarajatlari ko'rsatkichlari keltirilgan jadval malumotlaridan so'ngi yillar davomidagi material xarajatlarining o'sish dinamikasi ko'rinadi.


“O’ztemiryo’lkonteyner”AJning materiallar xarajatlari
ko’rsatkichlari tahlili *(9420)

Ko’rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015- yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o’zgarish	2015 yil 2014 yilga nisbatan o’zgarish
				Mutloq (+/-)	Mutloq (-,+)
Inventar va xo’jalik jihozlari, materiallar tannarxini hisobdan chiqarish, ming so’m					
Yengil avtomashinalarga material xarajatlari, ming so’m					
Maxsus kiyim uchun material xarajatlari, ming so’m					
Konstovarlari tannarxini hisobdan chiqarish, ming so’m					
Texnik vositalarga xizmat ko’rsatish, ming so’m					

* Manba: “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning buxgalteriya hisobi hisobotlari (2013-2015-yillar)

“O’ztemiryo’lkonteyner”AJning materiallar xarajatlari ko’rsatkichlari keltirilgan jadval ma’lumotlaridan so’ngi yillar davomidagi material xarajatlarning o’sish dinamikasi ko’rinadi. Ya’ni inventar va xo’jalik jihozlari, materiallar tannarxini hisobdan chiqarish bo’yicha xarajatlari 2015-yilda 2013- yilga nisbatan 27694226,24 ming so’mga, hisobot yilini 2014- yilga taqqoslasak 20967397,08 ming so’mga

oshgan. Yengil avtomashinalarga material xarajatlari ham 2015- yil 2013-yilga qaraganda 3659600 ming so'mga 2014-yilga nisbatan 6446900 ming so'mga oshgan bo'lib, bunga sabab avtomashinalar sonining ko'payishi, ularga kapital va joriy ta'mir ko'rsatish xarajatlarining ko'payishi bilan izohlashimiz mumkin. Maxsus kiyim va konstovarlar uchun material xarajatlari hisobot yilida oldingi yildagilardan oshganini inflyatsiya darajasining o'zgarishi bilan asoslanadi. Texnik vositalarga xizmat ko'rsatish vositalari xarajati ko'rsatkichi o'zgaruvchan dinamik harakatlangan ya'ni, 2015-yil 2013- yilga nisbatan 41540788,84 ming so'mga oshgan bo'lsa hisobot yilida 2014-yilga qaraganda 35349445 ming so'mga kamaygan. Kamayganligining bosh sababi xodimlar malakasining oshirib kelganligi va texnik vositalarga xizmatlar korxonaning o'zida ko'rsatilganligidir. 1.4-rasmda korxonaning boshqa xarajatlarining o'zgarish dinamikasi keltirilgan.



1.4-rasm "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning materiallar xarajatlari tahlili

1.8-jadvalda "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning materiallar xarajatlari haqidagi malumotlar o'zgarishi berilgan.

“O’ztemiryo’lkonteyner”AJning boshqa xarajatlari
ko’rsatkichlari tahlili *(9420)

Ko’rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015- yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o’zgarish	2015 yil 2014 yilga nisbatan o’zgarish
				Mutloq (+/-)	Mutloq (-,+)
Mamuriyat va boshqaruv binosining ijara to'lovi, ming so'm					
Komunal to'lovliga xarajatlar, ming so'm					
Yengil avtomashinalarni saqlash xarajatlari, ming so'm					
Ma'muriy asosiy vositalarning tamirlash, saqlash va eskirish xarajatlari, ming so'm					
Yengil avtomashinalarni yoqilg'i xarajatlari, ming so'm					
Aloqa xizmatlari, ming so'm					
Aloqa xizmatlari, (xalqaro) ming so'm					
Elektr energiya xarajatlari, ming so'm					

* Manba: “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning buxgalteriya hisobi hisobotlari (2013-2015-yillar)

“O’ztemiryo’lkonteyner”AJning boshqa xarajatlari ko’rsatkichlari tahlil qiladigan bo’lsak ma’muriyat va boshqaruv binosining ijara to'lovi ko’rsatkichi 2015- yilda 2013-yilga qaraganda 4480349,71 ming so’mga oshgan bo’lsa 2014-yilga nisbatan 5767883,42 ming so’mga kamaygan. Kamayishiga sabab ijaradagi

binolar sonining qisqartganligini misol qilib aytish mumkin. Komunal to'lovlar ham hisobot yilida 2013-yilga qaraganda 5900376,2 ming so'mga pasaygan. Bunga korxonada kommunal xizmatlar xarajatlarini o'lchashda elektron hisoblagichlar, tejamkor elektr yoritish lamalarining o'rnatilganligini sabab qilishimiz mumkin. Yengil avtomashinalarni saqlash xarajatlari va ma'muriy asosiy vositalarning tamirlash, saqlash va eskirish xarajatlari 2015- yilda oldingi yildagi ko'rsatkichlarga qaraganda ancha tejalishiga erishilgan. Elektr energiya va aloqa xizmatlari (xalqaro) xarajatlari o'sishda davom etgan. Jumladan elektr energiya ko'rsatkichi 2015-yilda 2013-yilga taqqoslaganda 5042558,22 ming so'mga bu ko'rsatkichni 2014- yilga nisbatan olib qaraganda 2969732,89 ming so'mga ko'payganlihinining sababini elektr energiya uchun davlat tomanidan belgilangan summa miqdorining o'zgarishi bilan izohlanadi. Xalqaro aloqa xarajatlari oshishi 2015-yilda 2014-yilga nisbatan tashqi buyirtmachilar sonining ko'payishi, ular bilan faks, telefon qo'ng'iroqlari va boshqa xarajatalri hisobidan 2969732,89 ming so'mga oshgan, Bu xarajatlarni qisqartirish choralarini ko'rish kerak.

Boshqa operatsion xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari;
- obyekt huzuridagi omborga tashishda yuz bergan shikastlanish va nosozliklarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, zanglashga qarshi himoya vositalari nuqsonlarini yuzaga keltirgan sabablarni taftish (uskunani muhofazalash) xarajatlari va yetkazib berish hamda ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga, kamchiliklar, shikastlanish yoki zararlar uchun mas'ul yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga mazkur xarajatlar to'lanishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladigan shunga o'xshash boshqa xarajatlar;
- maslahat va axborot xizmatlari uchun to'lanadigan haqlar;
- auditorlik xizmatlariga to'lanadigan haq;
- o'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarini saqlashdan ko'riladigan zararlar;

— bevosita xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida ishtiroki bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil etish tadbirlari;

—rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar.

➤ ko'p yil ishlagani uchun bir martalik mukofotlar, taqdirlash va to'lovlar summalari;

➤ majburan ishga kelmaganlik yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik vaqti uchun qonun hujjatlariga muvofiq yoki xo'jalik yurituvchi subyektning qaroriga ko'ra haq to'lash;

➤ mehnat qobiliyati vaqtincha yo'qotilgan taqdirda qonun hujjatlariga binoan belgilangan haqiqiy ish haqiga qadar qo'shimcha to'lovlar;

➤ malaka oshirish va xodimlarni qayta tayyorlash tizimida o'qitilgan vaqtda asosiy ish joyidan ishchilarga, ular ishdan ajratgan holda xo'jalik yurituvchi subyektning ishchi va xizmatchilariga to'lanadigan ish haqi;

➤ o'n ikki yoshgacha ikki va undan ortiq bolalari yoki o'n olti yoshgacha nogiron bolasi bo'lgan ayollarga, qonunchilikka muvofiq, qo'shimcha ta'til uchun haq to'lash;

➤ xodimlarga bepul tovarlar, mahsulot va boshqa boyliklar berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish;

➤ xodimlar xarajatlarini to'lash (ovqatlanish, yo'lda yurish, dam olish va davolanishga yo'llanmalar, ekskursiya va sayohatlar, sport seksiyalari, to'garaklar, klublardagi mashg'ulotlar, madaniy-ko'ngil ochish va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlarida qatnashish, obuna, xodimlarning shaxsiy iste'moli uchun tovarlar va shunga o'xshash boshqa to'lovlar);

— ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to'lov va xarajatlar, shu jumladan:

Qonun hujjatlariga muvofiq bola ikki yoshga yetishiga qadar uni parvarishlash bo'yicha oylik nafaqa to'lash xarajatlari;

➤ xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam;

— sog'liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlaruylari, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, sog'lomlashtirish maskanlari, madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'limi muassasalari va uyjoy fondi obyektlarini tutib turish xarajatlari (shu jumladan amortizatsiya ajratmalari vabarcha turlardagi ta'mirlashni o'tkazish xarajatlari);

— vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarni saqlash xarajatlari (boshka manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

— bank va depozitariy xizmatlariga haq to'lash;

— ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismonii tarbiya va sport korxonalari, muassasa va tashkilotlariga badallar;

— byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'imlar, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi subyekt xarajatlariga kiritiladigan, davlatning maqsadli jamg'armalarga ajratmalar, shuningdek, hukumat qarorlariga muvofiq davlatlararo tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash;

— zararlar, jarimalar, penyalar, shu jumladan:

➤ bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha talafotlar;

➤ bevosita ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli bo'lmagan moddiy boyliklarning talafotlar va kamomadlari;

➤ ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulotni past baho usuli yoki sotishning sof qiymati bo'yicha qayta baholash yoki narxni tushirish natijasida ko'rilgan zararlar;

➤ idish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha zararlar;

➤ sud chiqimlari;

➤ dargumon qarzlari bo'yicha zaxiraga ajratmalar;

➤ da'vo muddati o'tib ketgan debitorlik qarzi va undirish mumkin bo'lmagan boshqa qarzlarni hisobdan chiqarish zararlar, shuningdek qonunga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha dargumon qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar operatsiyalari bo'yicha zararlar;
- tabiiy ofatlardan ko'rilgan qoplanmaydigan talafotlar va zararlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor buyumlar va boshqa moddiy boyliklarning yo'q qilinishi va buzilishi, ishlab chiqarish to'xtashidan ko'rilgan talafotlar va hokazo), shu jumladan tabiiy ofatlarning oldini olish va oqibatlarni tugatish bilan bog'liq xarajatlar;

- aybdorlari aniqlanmagan yoki zarur summalarni aybdor hisobiga qoplab bo'lmaydigan holda o'g'irliklardan ko'rilgan zararlar;

- xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalari va boshqa mol mulki (aktivlari) chiqarilishidan (balansdan xisobdan chiqarishdan) ko'rilgan zararlar;

- xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun, shu jumladan etkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan to'lovlar va boshqa xil choralar, shuningdek etkazilgan zararlarni to'lash xarajatlari;

- soliq qonunchiligi va boshqa qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarima va penyalar;

- to'langan boshqa jarimalar;

- xodimlarga beriladigan yoki yordamchi xo'jaliklar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy ovqatlanish korxonasi uchun ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narx tafovutlari;

- ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-sinov ishlarini olib borish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash va sinash, ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlarni, sertifikatlashni hamda ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha boshqa tadbirlarni tashkil etish, mualliflar haqini to'lash xarajatlari va boshqa xarajatlar;

- ijaraga berilgan asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;

- boshqa xarajatlar.

Korxonadagi boshqa operatsion xarajatlar hisobining o'zgarishini quyidagi 9.1-jadvalda tavsiflangan.

1.9-jadval

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning boshqa operatsion xarajatlar hisobi

ko’rsatkichlari tahlili *(9430)

(ming so’m)

Ko’rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015- yil	2015 yil 2013 yilga nisbatan o’zgarish	2015 yil 2014 yilga nisbatan o’zgarish
				Mutloq (+/-)	Mutloq (+/-)
Boshqaruv xodimlari kasallik varaqasi					
Byudjetga to'lovlar					
Davolanishga, dam olishga, ovqatlanishga, turar joyga yo'llanma xarajatlari to'lovlar					
2 yoshgacha bolalilarga yordam, ming so'm					
Faxriy temiryo'lchilarga qo'shimcha to'lov					
Mehnat tatiliga bir yillik to'lov					
Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ish va xizmatlarga material sarfi					
Moddiy yordam					
Soliqlar					
Auditorlik xizmatlariga to'lovlar, ming so'm					
Maslaxat va axborot xizmatlariga to'lovlar					
Ijtimoiy sug'urtaga ajratma					
Sud xarajatlari					
Boshqa xarajatlar					
Jami					

* “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning buxgalteriya hisobi hisobotlari (2013-2015-yillar)

1.9-jadval tahlil qiladiganda, “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning boshqa operatsion xarajatlar hisobi ko’rsatkichlari malumotlari keltirilgan shuni aytishimiz mumkinki, byudjetga to’lovlar 2015-yilda 2013- yildagidan 977869149 ming so’mga kamaygan bo’lishiga qaramastdan 2015-yilni 2014-yilga taqqoslasak bu ko’rsatkich 68741275 ming so’mga o’sgan. Budjetga to’lovlarning o’zgaruvchan dinamikasiga sabab qilib imtiyozlar va mamlakatimiz tomonidan soliq foiz stavkalarininh kamaytirilishini keltirish mumkin. 2 yoshgacha bolalilarga yordam 2015-yilda 2014-yildagidan 2028187,78ming so’mga, faxriy temiryo’lchilarga qo’shimcha to’lovlar 1015-yilda 2014-yildagidan 3465941,22 ming so’mga, mehnat tatiliga bir yillik to’lov bo’lsa xuddi shu yillarda 14261721,03 ming so’mga oshgan. Bunga sabab mamlakatimizda minimal ish haqining yildan- yilga oshirilayotlanligidir. Davolanishga, dam olishga, ovqatlanishga, turar joyga yo’llanma xarajatlari to’lovlar ham yildan yilga qisqarmoqda, jumladan bu ko’rsatkich ham 2015-yil 2013-yilga qaraganda 37199502,73 ming so’mga qisqargan, 2015-yilni 2014- yilga nisbatan olib qaraganda 3146850,33 ming so’mga kamaygan. Bu esa temir yo’l poliklinirasida ishlarning samarali olib borilishi bilan bo’g’liqdir. Bulardan tashqari hisobot yilida o’tgan yillarga qarganda yana ko’pgina ko’rsatkichlarning qisqarilishiga erishilgan. Jumladan maktabgacha ta’lim muassasi, oromgohlar,uy-joy obyekti fondlari mazmunidagi xarajatlari 19362899,61 ming so’mga, auditorlik xizmatlariga to’lovlar 5000000 Maslaxat va axborot xizmatlariga to’lovlar ming so’mga, Maslaxat va axborot xizmatlariga to’lovlar 13719076,87 ming so’mga kamaygaligi bevosita korxona xodimlari malakasining oshirilishi natijasida tashqi xizmat ko’rsatuvchilarga talabning kamayishi misol bo’ladi. Ijtimoiy sug’urtaga ajratma 66848617,55 ming so’mga, maslaxat va axborot xizmatlariga to’lovlar 13719076,87 ming so’mga, mukofotlar 368488782,5 ning so’mga, jarimalarni tan olish 324385118,5 ming so’mga va boshqalarning iqtisod qilinishiga erishildi. Bu korxona xodimlarining yaxshi ish olib borayotganligidan darak beradi.

Soliq to’lovlari soliq tavkalari va minimal ish haqining oshishi natijasida 2015-yilda 2014-yildagidan 467953681,7 ming so’mga ko’paygan. Soliq va boshqa

majburiy to'lovlarini vaqtida to'lamaslik yoki xata kamchiliklarga yo'l qo'yilishi oqibatida soliq va boshqalar bo'yicha penya va jarimalar 2015-yilga 2014- yildagidan 9157412,15 ming so'mga oshgan. Tomonlardan birining shartnoma shartlariga amal qilmasligi natijasida sud xarajatlari ham 2015-yilda 2014-yilga nisbatan 83288237,94 ning so'mga ortgan.

Birinchi bob bo'yicha qisqacha xulasa qilinsa, bu bobda "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlari va ularning tahlili qilingan. Bunga ko'ra hisobot yilida korxonada jami daromad 44229262 ming so'mni jami xarajatl esa 29641715 ming so'mga teng bo'lgan. Bu 2014- yilga nisbatan jami daromad 17598825 ming so'mga, jami xarajat 11811785 ming so'mga oshgan. Davr xarajatlarining ichida jami boshqaruv xarajatlari 2015-yilda 2013- yilga qaraganda 136862529 ming so'mga oshgan, boshqa operatsion xarajatlari esa 582847753 ming so'mga oshgan. Har bir korxona faoliyat ko'rsatishidan maqsad maksimal foyda olishdir. Foydani oshirish uchun davr xarajrlarini kamaytirish kerak. Buning uchun resurslarni tejab ishlatish, malakali, bilimli kadrlarni ishga olish, xodimlarning o'z ishiga masuliyat bilan yondashishini xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymasligini nazorat qilish kerak.

II Bob. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarining buxgalteriya hisobi

2.1. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarini hisobga olishning birlamchi hujjatlari

Buxgalteriya hisobini olib borishda hujjatlashtirish muhim o’rin tutadi. Har qanday xo’jalik operatsiyasi birlamchi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi, u hisobga olingan jarayonlarni hujjatlarda asoslash uchun xizmat qiladi. Hujjatlarda mavjud bo’lgan muxir va imzolar yuridik kuchga ega bo’ladi.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJda hujjatlarni rasmiylashtirish va hujjatlar aylanishini yuritish “Buxgalteriya hisobidagi hujjatlar va hujjatlar aylanishi to’g’risida”gi nizom (O’zR AV tomonidan 14.01.2004 yilda 1297-son bilan ro’yxatdan o’tkazilgan) bilan tartibga solinadi. Buxgalteriya hujjati deganda xo’jalik operatsiyasini amalga oshirish huquqini beradigan yoki uning haqiqatda sodir etilganlik holatini tasdiqlaydigan yozma guvohnomadir.

Hujjatning ahamiyati shundan iboratki, ular hisobga olishning birlamchi manbalari hisoblanadi va xo’jalik operatsiyalarining qonuniyligini hamda maqsadga muvofiqligini nazorat qilish uchun xizmat qiladi.

Korxonada birlamchi hujjatlar tasdiqlangan namunaviy unifikatsiyalashgan shakllar bo’yicha tuziladi. Agar hujjat bo’yicha unifikatsiyalashgan shakl ko’zda tutilmagan bo’lsa unda quyidagi majburiy rekvizitlar bo’lishi zarur:

- ✓ Hujjatning nomi va raqami;
- ✓ Korxonaning nomi;
- ✓ Hujjatni tuzish sanasi va uning tuzilgan manzili;
- ✓ Xo’jalik operatsiyasining mazmuni;
- ✓ Hisob o’lchovlari(miqdor, summa);

✓ Xo'jalik operatsiyasini sodir etish va hujjatni rasmiylashtirish uchun mas'ul shaxslarning imzolari. Imzolar ania va tushinarli bo'lishi kerak.

Sanab o'tilgan rekvizitlar har bir buxgalteriya hujjatida bo'lishi shart, qolgan axborot esa hujjatlashtirilayotgan operatsining xususiyati bilan belgilanadi.

“O'ztemiryo'lkonteyner” AJ “Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida buxgalteriya hisobinining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar” nomli 21-sonli Buxgalteriya hisobi milly andozasi (BHMA)ga asosan tashish faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan ishchi schotlar rejasidan foydalanadi.

Ishchi schotlar rejasida ko'zda tutilmagan operatsiyalar vujudga kelganida “Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi tomonidan to'ldiriladi. Ishchi schotlar rejasi «O'ztemiryo'lkonteyner» AJ tomonidan asosiy (tashish) faoliyati bo'yicha bajarilishi majbur bo'lgan hujjat hisoblanadi. «O'ztemiryo'lkonteyner» AJ schotlardagi analitik kodlarni mustaqil belgilaydi.

«O'ztemiryo'lkonteyner» AJda buxgalteriya hisobi ikkiyoqlama yozuv usulida hisoblash texnikasi yordamida yuritiladi. Korxonada dastlabki hujjatlar asosan axborot-hisoblash markazining mashina hisoblash stansiyalarida qayta ishlanadi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga oluvchi namunaviy shakllarga ega bo'lmagan dastlabki hujjatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonunining 9-moddasiga binoan rasmiylashtiriladigan ichki buxgalteriya hisoboti uchun shakllar kompaniyaning “Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Qayta ishlanadigan namunaviy shakllarga ega bo'lmagan dastlabki hujjatlar kompaniyaning “Moliya va buxgalteriya hisobi” boshqarmasi bilan kelishilgan holda «O'ztemiryo'lkonteyner» AJ rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

«O'ztemiryo'lkonteyner» AJ rahbari o'z buyrug'ida mulkning alohida ko'rinishlarini tasarruf qilish huquqi berilgan shaxslarni, shuningdek, moliyaviy,

hisob va boshqa hujjatlarda birinchi va ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yhatini beradi.

Xo'jalik operatsiyalari "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasiga binoan dastlabki hujjatlarning namunaviy va qat'iy belgilangan shakllaridan foydalangan holda rasmiylashtiriladi. Buxgalteriya hujjatlarining o'z vaqtida tayyorlanishi, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun belgilangan muddatda yetkazib berish, hujjatlardagi ma'lumotlar mazmuni uchun bu hujjatlarni tayyorlagan shaxslar javobgar hisoblanadi. Dastlabki hujjatlar ularni tayyorlagan shaxslar tomonidan imzolanadi. Imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan imzolanmagan hujjatlar haqiqiy emas deb topiladi.

Davr xarajatlarini hisoblashda asos qilib olinadigan birlamchi hujjatlarga boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda band bo'lgan ma'muriy xodimlar faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar kiradi. Boshqaruv faoliyati bilan bog'liq asosiy vositalarning eskirishini hisobga olishning dastlabki hujjarlariga inventar kartochkalar, asosiy vositalarni qabul qilish, o'rnatish, ishga tushirish, tamirlash, hisobdan chiqarish dalolatnomalari, amortizatsiya me'yorlari, joriy va kapital tamirlash bilan bog'liq hujjatlar kiradi.

Boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun asos bo'ladigan hujjatlarga mehnat shartnomasi, shaxsiy varaqa, ish vaqtini hisobga olish tabeli, ma'lum bir vazifalarni bajarilganligini tavsiflovchi bildirgilar (raport), qaydnomalar, cheklar, kvitansiyalar kiradi.

Ma'muriy xodimlarining xizmat safarlari bilan bog'liq hujjatlarga buyruqlar, xizmat safari guvohnomasi, chiptalar, mehmonxona, transport va boshqa xarajatlari to'g'risidagi hujjatlar davr xarajatlarini hisobga olishdagi birlamchi hujjatlar hisoblanadi.

Mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo'qotqonlikni tasdiqlovchi hujjarlar bo'lib kasallik varaqalari, ma'lumotnomalari, sog'liqni saqlash muassasalarining dalolatnomalari, qarorlari hisoblanadi.

Ma'muriy xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalarini saqlash, ta'mirlash va foydalanish bilan bog'liq hujjatlar ham davr xarajatlarini hisobga olishdagi muhim hujjatlari hisoblanadi.

Boshqaruv faoliyatida foydalaniladigan aloqa vositalarini ishlatilishi bilan bog'liq xizmatlarini amalga oshirishda hamkorlar bilan tuzilgan shartnomalar, ularni o'rnatish, ta'mirlash va aloqa xizmatlari uchun haq to'langanligi to'g'risidagi hisob fakturalarni, bank ko'chirmalari, kvitansiyalarni va hujjatlardan foydalaniladi.

Xarajatlarni qoplashga ajratilgan dotatsiya 9690-“Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar” hisobvarag'ida aks ettiriladi. Dotatsiya olinganda 9590-“Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” hisobvarag'ida ko'rsatiladi. Foyda o'zlashtirilganda teskari provodka beriladi.

Mahsulotlar (ishlar va xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar hisobot davri mobaynida 9410 «Sotish bo'yicha xarajatlar» hisobvarag'ining debetida hisobga olinadi, hisobot davrining oxirida esa ushbu hisobvarag'ning kreditidan 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ining debetiga hisobdan chiqariladi.

Boshqaruv va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlar hisobot davri mobaynida 9420 «Ma'muriy xarajatlar» hisobvarag'ining debetida hisobga olinadi, hisobot davrining oxirida esa ushbu hisobvarag'ning kreditidan 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ining debetiga hisobdan chiqariladi.

Boshqa operatsion xarajatlar hisobot davri mobaynida 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi, hisobot davrining oxirida esa ushbu hisobvarag'ning kreditidan 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ining debetiga hisobdan chiqariladi.

Kelgusida soliqqa tortish bazasidan chiqariladigan hisobot davrining xarajatlari hisobot davri mobaynida 9440 «Kelgusida soliqqa tortish bazasidan chiqarib tashlanadigan hisobot davrining xarajatlari» Hisobvarag'ining debetida hisobga olinadi, hisobot davrining oxirida esa ushbu hisobvarag'ning kreditidan 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ining debetiga hisobdan chiqariladi.

9410-9440 «Davri xarajatlari» hisobvarag'i saldogaga ega bo'lmagan tranzit hisobvarag'i hisoblanadi. Hisobot davri oxirida ushbu hisobvaraq debetida yig'ilgan xarajatlarning umumiy summasi 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'i debetiga hisobdan chiqariladi.

Shuni aytish kerakki korxonaning faoliyati asosan xizmat ko'rsatishga to'g'ri kelganligi sababli davri xarajatlarini ham to'g'ri va aniq holda hisobga olib borish va davri xarajatlarini asosiy faoliyat xarajatlariga va yordamchi ko'makchi faoliyat xarajatlariga mutanosib ravishda olib borish korxona daromad va xarajatlarini tahlil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib hisobot davri davomida xarajatlar ushbu hisobvarag'lar debetida aks ettiriladi va xarajatlar tarkibi to'grisidagi Nizomda nazarda tutilgan xarajatlar moddalari bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Xarajatlarni guruhlariga ajratishni yil boshidan o'sib boruvchi yakunlar bilan nazarda tutigan moddalar bo'yicha qat'iy tartibda bajarish zarur, chunki xarajatga kiritilgan ayrim moddalar so'ngra, soliq hisobotini tuzayotganda soliqqa tortish foydaga kiritiladi. To'g'ri guruhlashtirish va moddalar bo'yicha davri xarajatlari hisobi soliq solinadigan foyda hisob-kitobining bundan keyin to'g'ri bo'lishini kafolatlaydi.

2.2. “O'ztemiryo'lkonteyner” AJ xarajatlarining sintetik va analitik hisobi

Sintetik schyotlar xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari haqida umumiy hamda qiymat ko'rinishida ma'lumotlarni olish maqsadida hisob yuritishga mo'ljallangan⁴.

Sintetik schyotlarning aniqlashtirilib va detallashtirilib berilishiga analitik schyotlar deb aytiladi.

⁴ G'ulomova.F.G'. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma.

Analitik schyotlar ma'lumotlari xo'jalik mablag'lari va ularning manbalarini nafaqat pul (qiymat), balki natura hamda vaqt (mehnat) o'lchov birliklarida ham hisob yuritishga mo'ljallangandir.

Analitik schyotlar bo'yicha buxgalteriya provodkalari amalga oshirilmaydi. Analitik hisob mablag'lar turlari bo'yicha maxsus ochilgan kartochkalarda olib boriladi.

Davr xarajatlarining hisobini yuritish uchun 9400 schyotidan foydalaniladi.

9410-“Sotish bilan bog'liq xarajatlar”;


9420- “Ma'muriy xarajatlar”;

9430-“Boshqa operatsion xarajatlar”.

Mazkur schyotlarning aktivida korxonada amalga oshirilgan davr xarajatlari bilan bog'lik jarayonlar aks ettiriladi, xisobot yilining oxirida, jami summaning yig'indisiga 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan korrespondentsiyalanadi. Boshqacha qilib aytganda, davr xarajatlari hisobot davrining so'ngida korxona foydasini kamayishiga olib keladi. 2.1-rasmda davr xarajatlarini buxgalteriya provodkalari berilgan.

9400 davr xarajatlari schyotlar korrespondentsiyasi (ming so'm)

Debet	9400	Kredit
d-t 6710 k-t		d-t 9910 k-t
<u> </u>		<u> </u>
401857413	→	6504292597,75
d-t 4220 k-t		
<u> </u>		
7350295	→	
d-t 0200 k-t		
<u> </u>		
69467044	→	
d-t 1000 k-t		
<u> </u>		



Quyida davr xarajatlari bilan bog'lik jarayonlarni buxgalterniya provodkalari 2.1-jadvalda aks etirilgan.

2.1-jadval

Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (9400)ning bog'lanishi*

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi		
		Debet	Kredit	Summa, ming so'm
1	Boshqaruv xodimlarining mehnat haqi xarajatlari			
2	Boshqaruv ahamiyatiga molik asosiy vositalarning eskirishi			
3	Boshqaruv binosining ijara to'lovi			
4	Boshqaruv ehtiyojlari uchun materiallar sarflandi			
5	Elektr energiya, aloqa xizmati va yengilavtomashinalarga yoqilg'i xarajatlari			
6	Xizmat safarlari va vakillik xarajatlari			
7	Bank va auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar			
8	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan zararlar			
9	Soliq idoralari qaroriga ko'ra jarima hisoblendi			

10	Korxona xodimlari uchun dam olish uylari va sanatoriylarga yo'llanmalar to'landi			
11	O'tgan yillar muomalalaridan ko'rilgan zararlar			

*Manba: 2015-yil buxgalteriya hisobi hisobotlari ma'lumotlari.

Boshqaruv xodimlarining mehnat haqi xarajatlari hisoblaganda debet tomonda davr xarajatlarining oshishi va kredit tomonda mehnat haqi bo'yicha majburiyatning oshishi ko'rinishida aks ettiriladi. Boshqaruv ahamiyatiga molik asosiy vositalarning eskirishi ham xuddi shunday debetda boshqaruv xarajatlarining oshishi kredit tomonda esa ma'muriy tusdagi asosiy vositalar eskirishining oshishi tarzida olib boriladi. Bunda asosiy vositalar aktiv schyot bo'lganligi bilan ularning eskirishi kontraktiv schyot bo'lganligi sababli u passiv schyotda ko'payadi. Boshqaruv binosining ijara to'lovi 6910- to'lanadigan operativ hisob varag'ida yuritiladi. Barcha hisob kitoblar shu tarzda olib boriladi va oxirida 9400-davr xarajatlari hisob varag'i 9910-yakuniy moliyaviy natija hisob varag'iga yig'ilib yopiladi.

Ikkinchi bobda "O'ztemiryo'lkonteyner" AJning davr xarajatlarining buxgalteriya hisobi o'rganib chiqilgan. Davr xarajatlarini hisobga olishdagi birlamchi hujjatlari, 9400 davr xarajatlari hisob varag'ining boshqa hisob varaqlar bilan korrespondentsiyasi, buxgalteriya o'tkazmalari o'rganib chiqilgan.

III bob. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarini kamaytirish yo’llari

3.1. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlariga ta’sir etuvchi omillar

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning faoliyat yuritishi natijasida oladigan daromadlari, shunga mos ravishda qiladigan xarajatlarini hisoblash va ular orasidagi farqni bilish korxona uchun asosiy natijaviy ko’rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xarajatlar o’zgarib turadi, bu esa resurslarning bozor narxiga, ularning tejalishiga, xarajatlar turlarining nisbatiga va ishlab chiqarish ko’lamiga bog’liqdir. Davr xarajatlarga ta’sir etuvchi omillar ikki guruxga bo’linadi:

Birinchisi, korxonaga bog’liq omillar, bunga ishlab chiqarish ko’lamini o’zgartirish, resurslarni tejab ishlatish.

Ikkinchisi, firmaga bog’liq bo’lmagan omillar, bularga resurslar narxi va soliqlar kiradi.

Davr xarajatlarini kamaytirish fan va texnikaning ilg’or texnologiyaning eng yangi yutuqlarini izlash va joriy etishga undaydi.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlariga tasir qiluvchi omillarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Ma’muriy xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish.

2. Ma'muriy xodimlarning mehnatni ilmiy tashkil qilish.
3. Ma'muriy xodimlarning ishchi kuchlarini to'g'ri joylashtirish.
4. Ma'muriy xodimlarning fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib borish, tadbiq qilish.
5. Ma'muriy xodimlarning kadrlar malakasini oshirib borish.
6. Resurslaridan samarali va unumli foydalanish.
7. Soliq stavkalarining o'zgarishi.
8. Jamoat shartnomalaridagi o'zgarishlar.
9. Ma'muriy boshqaruv ishchilari shtatining qisqarishi.
10. Ishlab chiqarishni boshqarishni to'g'ri tashkil etish va boshqalar.


Umuman olganda esa bu omillarni quyidagicha birlashtirish mumkin: yangi fan-texnikani qo'llash mehnat unumdorligini oshirib borish, sarflarini qisqartirib borish. Xar qanday jamiyatning muhim bo'g'inlaridan asosiysi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib borishdir. Xar bir faoliyat ko'rsatayotgan korxona ham o'z oldiga ana shuni vazifa qilib qo'yadi, ya'ni korxonaning asosiy maqsadi, davr xarajatlarini minimallashtirib maksimal foyda olishdir.

“O'ztemiryo'lkonteyner” AJning davr xarajatlariga yuqorida sanab o'tilgan muhim omillar ta'sir etar ekan, bularning barchasini birgalikda amalga oshirish juda qiyin. Masalan: samarali ishlatishni ta'minlash, ishchilarni ijtimoiy muxofazalashni kuchaytirish, fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib, uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish, umuman bularni birbaraviga amalga oshirish murakkab jarayondir. Lekin, shu omillarni barchasini birgalikda olib borilishi iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Shunday qilib, “O'ztemiryo'lkonteyner” AJning davr xarajalariga asosan fan-texnika yutuqlari soliq stavkalarining o'zgarishi, xodimlar malakasi, jamoat shartnomalaridagi o'zgarishlar va MBIlari soni asosiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnatni ilmiy tashkil qilgan holda ishlab chiqarishni yuksaltirib borish ham muhimdir. Xar bir ishchi o'zining kasbini qilayotgan ishini sevishi kerak. Bu esa kadrlar malakasizligiga barxam beradi, natijada ishlab chiqarish yuksaladi. Ilmiy

tadqiqotlardan ma'lumki, ishchilarning u ishdan bu ishga ko'chib yurishlari natijasida ish samaradorligi 30-40% foizgacha kamayar ekan. Bu degan so'z ishlab chiqarishning asosiy qismi yo'qoldi degandir. Shu sababli eng asosiy e'tibor ishchi o'rinlarini to'g'ri tashkil etishga qaratilishi zarur.

Yangi bozor tizimi isloxlarni amal qilishi iqtisodiyotda juda muhim sanalmoqda va ahamiyati ortib bormoqda. Xar bir korxona o'z oldiga xarajatlarni pasaytirish, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishni ustivor vazifa qilib qo'yish kerak, ana shundagina iqtisodiyot yuksaladi, ishlab chiqarish taraqqiy etadi.



3.1-rasm. Davr xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar chizmasi

3.2. “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarini kamaytirish korxona daromadlar darajasini oshirishga katta ta’sir ko’rsatadi. Korxonada olib boriladigan davr xarajatlari hisobi yuqorida o’rganilib chiqildi. Shu o’rganilgan ma’lumotlarga asoslanib ko’rsatkichlarning davr xarajatlariga ta’sirini bir necha qismlarga bo’lib aniqlangan. 3.1-jadvalda ish haqi fondi bilan bog’liq xarajatlarning ta’sir qilishi ko’rib chiqilgan.

3.1-jadval

“O’ztemiryo’lkonteyner”AJning mehnatga haq to’lash fondi
ko’rsatkichlari jamiga nisbatan ulishi *(9420)


Ko’rsatkichlar	2013-yil		2014-yil		2015-yil	
	Summa	Ulishi (%)	Summa	Ulishi (%)	Summa	Ulishi (%)
Ma’muriy boshqaruv xodimi ish haqi, ming so’m						
Ma’muriy boshqaruv ishchi haydovchilari ish haqi, ming so’m						
Boshqaruv xodimlari xarajatlari, ming so’m						
Boshqaruv xo’jalik subyektlari xarajatlari, ming so’m						
Xizmat safari, ming so’m						
Xizmat safari valyutada, ming so’m						

Jami						
------	--	--	--	--	--	--

*Manba “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning buxgalteriya hisobi hisobotlari (2013-2015-yillar)

3.1- jadvalda “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning mehnatga haq to’lash fondi ko’rsatkichlari jamiga nisbatan ulishi keltirilgan. Bu ma’lumotlardan ko’rsatkichlarning jami ish haqi fondidagi ulushi aniqlangan. Bunga ko’ra eng katta ulush ma’muriy boshqaruv xodimi ish haqi bo’lib, u 2015- yilda jamiga nisbatan 73% ga teng lgan. Eng kichkinasi esa bo’xizmat safari xarajatlari 0.33% ni tahkil qilgan. Ma’muriy xodimlar va ishchilar sonini qisqartirish, boshqaruv xodimlari xarajatlariga kiruvchi xizmat safari aviachiptalarini mumkinlik darajasiga qarab temir yo’l chiptalariga almashtirish, valyutada bo’ladigan xizmat safarlarini sonini kamaytirish natijasida korxona davr xarajatlarini qisqartirsa bo’ladi.

3.2-rasmda “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning mehnatga haq to’lash fondi ko’rsatkichlari jamiga nisbatan ulishini 2015- yil ma’lumotlarini bo’yicha diagrammasi berilgan.



3.2-rasm “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning mehnatga haq to’lash fondi ko’rsatkichlari dinamikasi 2015- yil

3.2- jadvalda “O’ztemiryo’lkonteyner”AJning boshqa operatsion xarajatlari ko’rsatkichlarining jamiga nisbatan ulushi o’rganilgan.

3.2-jadval

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning boshqa operatsion xarajatlari ko’rsatkichlari jamiga nisbatan ulishi *(9430)

Ko’rsatkichlar	2013-yil		2014-yil		2015-yil	
	Summa	Ulishi (%)	Summa	Ulishi (%)	Summa	Ulishi (%)
Kasallik varaqasi ma’muriy boshqaruv xodimlari, ming so’m						
Byudjetga to’lovlar, ming so’m						
Davolanishga, dam olishga, ovqatlanishga, turar joyga yo’llanma xarajatlari to’lovlar, ming so’m						
2 yoshgacha bolalilarga yordam, ming so’m						
Faxriy temiryo’lchilarga qo’shimcha to’lov, ming so’m						
Mehnat tatiliga bir yillik to’lov, ming so’m						
Ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lmagan ish va xizmatlarga xarajatlar ming so’m						
Moddiy yordam, ming so’m						
Soliqlar, ming so’m						
Auditorlik xizmatlariga to’lovlar, ming so’m						
Maslaxat va axborot xizmatlariga to’lovlar, ming so’m						
Ijtimoiy sug’urtaga ajratma, ming so’m						
sud xarajatlari, ming so’m						
Boshqa xarajatlar						

Jami						
------	--	--	--	--	--	--

* “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning buxgalteriya hisobi hisobotlari (2013-2015-yillar)

3.2-jadval ma’lumotlarida “O’ztemiryo’lkonteyner” AJning boshqa operatsion xarajatlari ko’rsatkichlari jamiga nisbatan ulishi keltirilgan. Bunga ko’ra 2015-yilda eng katta ulish soliqlarga yani 59,4%ni eng kami esa 0,19% auditorlik xizmatlariga to’g’ri kelgan. 3.2- jadval malumotlaridan foydalanib korxonaga davr xarajatlarini kamaytirish borasida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- 2 yoshgacha bolalilarga yordam summasini kamaytirish;
- Ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lmagan ish va xizmatlarga xarajatlarni qisqartirish;
- sud xarajatlari jshishini oldini olish, ishlarning to’g’ri va vaqtida yuritilishini nazorat qilish;
- Boshqa xarajatlarni kamaytirish, resurslarni tejab, undan oqilona foydalanish.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning davr xarajatlarini kamaytirish yo’llari haqida gapirib o’tildi. Buning uchun korxonadagi ma’muriy xodimlarning xizmat safari xarajatlarini mukofotlarni kamaytirish, sanatorilarga, yozgi dam olish oromgahlariga yo’llanmalar sonini qisqartirish, materiallar, yoqilg’i va elektr energiya va boshqa tabiiy boyliklarni tejab ishlatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek xodimlar mehnat faoliyatini to’g’ri tashkil qilish, ortiqcha, o’z kasbiga masulyatsiz qaraydigan xodimlarni ishdan bo’shatish, hamma o’z ishini to’g’ri, to’liq, aniq va o’z vaqtida bajarishini nazorat qilish, malakali kadrlar bilan ishni olib borish ham davr xarajatlarini kamaytirishga o’z hissasini qo’shadi.

Davr xarajatlarini kamaytirishga mehnatni tashkil etishda takomillashtirish ta’sir ko’rsatadi. Har qanday texnikadan xatto yangisidan ham ishlab chiqarishni to’g’ri tashkil qilmay turib, maksimal ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik protsesslarni mexanizatsiya va avtomatlashtirish bilan bir qatorda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta e’tibor berish kerak.

Xarajatlarni kamaytirish korxona jamg'armasini oshirish imkonini beradi. Davr xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish va xisobga olish zarur. Iqtisod qilish yo'llarni aniqlash ortiqcha xarajatlarning sababini ochib tashlash uchun bu xarajatlarni doimi analiz qilib turish kerak. Davr xarajatlarini kamaytirish rejasining bajarilishini analiz qilish ishlab chiqarish rentabelligining oshishi uchun korxonadagi barcha ishlarning takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. u davr xarajatlarini yanada kamaytirish uchun tahliliy va texnikaviy xarakatlarni xam ko'rishi kerak.

Xarajatlar korxonaga bog'liq bo'lmagan omillarga qarab o'zgaradi. Masalan: resurs narxi xar xil xizmat haqqining tebranishi korxona hoxishidan qat'iy nazar xarajatlarni o'zgartiradi. Resurslarni tejovchi texnologiya joriy etilganda xarajatlar keskin qisqaradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxona foydasini oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi “O’ztemiryo’lkonteyner”AJ da davr xarajatlari tarkibi, ularning hisobi va tahlili bo’lib, mavzuni yoritishda “O’ztemiryo’lkonteyner” AJga tegishli ma’lumotlaridan foydalanildi. Korxonaning asosiy faoliyati konteynerli yuk tashish ishlarini amalga oshirish, yuklarni yuklash - tushirish ishlarini tashkil qilishdir. Tijorat asosida yuklarni jo’natuvchilarga yuk operatsiyalarini hujjatlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Aksiadorlik jamiyati transport xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini olib borish orqali hamkorlarni ehtiyojlarini o’rgangan holda yuk tashish xizmatlarini taklif etib, shartnomalar sonini shishiga erishgan. Korxona transport — ekspeditorlik xizmatlari ko’rsatish, bojxona yuklarini tashuvchi sifatida yuklarni bir joydan boshqa joyga ko’chirilishiga doir xizmatlarni va boshqa ishlarni bajaradi.

“O’ztemiryo’lkonteyner” AJning ishlab chiqarish va iqtisodiy ko’rsatkichlarining tahlil qilish jarayonida xizmat ko’rsatish ko’rsatkichlarini o’sishi kuzatildi. O’rganilgan davrda konteynerlarga yuklarni ortish 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 64,7 ming tonnaga ortgan yoki 15% oshgan. Buni 2014-yilga taqqoslaydigan bo’lsak 2015- yilda konteynerlarga yuklar ortish 59,6 ming tonnaga yoki 14%ga ko’paygan.

Sifat ko’rsatkichlaridan biri bo’lgan o’rtacha sutkada vagonlarni tushirish ko’rsatkichi, 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 26 ta vagonga ko’paygan. 2015-yilda konteynerlarda tashilgan yuklarning hajmining ortishi natijasida 2014-yilga nisbatan bir sutkada o’rtacha vagonlarni tushirish ko’rsatkichi 22 vagonga oshgan. 2015- yilda mehnat unumdorligi 2013- yilga nisbatan 8095 tonna/kishiga ko’paygan.

2015-yilda korxonaning jami daromadlari 2013-yilga nisbatan 21758184 ming so’mga, 2015- yilda 2014-yilga nisbatan esa 17598825 ming so’mga

ko'paygan. 2015- yildan 2014-yilga nisbatan jami xarajatlar 11811785 ming so'mga ko'paygan.

Bu yutuq va muvoffiaqiyatlarga korxonada xizmat ko'rsatish jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, hujjatlashtirish ishlarini rasmiylashtirishni tezlashtirilganligi hisobiga erishilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi korxonada davr xarajatlariga oid bo'lib, unda korxonadagi ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlari hisobi o'rganildi. Boshqaruv xarajatlari hisobot yilida 2014-yilga qaraganda 54930381,38 ming so'mga oshgan, 2013- yilga nisbatan 9756587,84 ming so'mga tejashga erishilgan. Xizmat safarlari xarajatlari 2015-yilda 2013-yilga nisbatan 1476986 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2014-yilga nisbatan 684736 ming so'mga teng bo'lgan. Xizmat safari xarajatlarining oshishiga asosiy sabab, xodimlar malakasini oshirish bilan bo'g'liq xarajatlarning ko'payganligidir.

Davr xarajatlari hisobot davridagi jami xarajatlarning 33,4% ini tashkil qilmoqda. Shu sababli korxonada jami xarajatlar tarkibidagi davr xarajatlarini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. "O'ztemiryo'lkonteyner" AJ davr xarajatlari tarkibidagi ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlarni qisqartirish natijasida o'z foydasini oshirishga erishadi.

Korxona davr xarajatlarini kamaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Davr xarajatlarida mahalliy soliqlar bilan bog'liq soliq xarajatlarni kamatirish;
2. Jamoat shartnomalaridagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan muammolarni oldini olish;
3. Ma'muriy boshqaruv ishchilari shtatini qisqartirish;
4. Korxoda o'zida auditorlik va konsalting xizmatlarini ko'rsatishni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Каримов И.А. Ўзбекистон Республикасининг 2015-йилги ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мулжалланган иқтисодий дастурнинг энг мухим устувор йуналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. //“Халқ сўзи”, 16.01. 2016 й.
2. О'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonun. О'zbekiston–Т.:13.04.2006
3. О'zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi”. -Т.: 2015 у.
4. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари. Молия Вазирлиги ва Давлат Солиқ Қўмитаси, 2007-2015 й
5. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари.—Т.:, 2014й.
6. “Махсулот ишлаб чиқариш ва реализация қилиш бўйича ҳаражатлар таркиби ва молиявий натижаларни шаклланиш тартиби тўғрисида Низом » -Т.:1999,2015 й.
7. Иткин.Ю.М., Сотиволдиев А.С., Тўлахўжаева М.М., Гадоев Э.Ф. “Замонавий бухгалтерия ҳисоби”.—Т.:,2008 й.
8. F.G'.G'ulomova “Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma.- Т.:«NORMA», 2013у
9. М. Умарова , “Бухгалтерия ҳисоби”,- Т.:, 2005 й.
- 10.Силаев Н.И. «Темир йул транспорти молияси».- Т.: Академия, 2007 й.
- 11.А.Каримов, Ф.Исломов, А.Авлокулов «Бухгалтерия ҳисоби».- Т.: Шарқ нашриёти, 2004 й.
- 12.А. Жўраев, Ш. Тошматов, О.Абдурахманов “Солиқлар ва солиққа тортиш”. - Т.: Норма 2009 й.

13. Vohobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”,-- Toshkent “Sharq”, 2012 y.
14. Jo'rayev A., Vohobov A. “Soliq va soliqqa tortish”. O'quv qo'llanma— Toshkent, 2009 y.
15. Солиқ ва божхона хабарлари газетаси .—Т.:, 2013-2015й.
16. Солиқ Инфо газетаси.—Т.:, 2013-2015 й.
17. Internet saytlar:
 - <http://www.gov.uz>.
 - <http://www.ziynet.uz>.
 - <http://www.nalog.uz>.
 - <http://www.tashiit.uz>
 - <http://www.leks.uz>